



NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 14 - may

79-5-70-Q/24

Konimex tuman hokimligi

Konimex tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sod qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomning 39-bandiga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 25-moddalariga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Konimex tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxatga ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish umumta’lim muassasalari pedagog xodimlari tomonidan bolalarni birma-bir (uymay) ro‘yxatga olish orqali amalgalash oshirilsin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari (M.Tulegenov), tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (G.Abdullayeva), umumta’lim maktablari rahbarlariga:

Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga, umumta’lim muassasasi bitiruvchilarini ta’limning keyingi bosqichiga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4. Belgilansinki, tumandagi umumta'lim muassasalar rahbarlari o'zlarini rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o'z vaqtida umumta'lim muassasasiga o'qishga jalb qilish uchun mas'ul hisoblanadi.

5. O'zbekiston mahallalari uyushmasi Konimex tumani bo'limi (S.Risbekov) mahalla fuqarolari yig'inini maktab yoshidagi bolalarni qamrab olishda umumta'lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Kadirov) mazkur qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya qilinsin.

7. Mazkur qaror kuchga kirishi bilan Konimex tumani hokimining 2022-yil 28-dekabrdagi 228-5-70-Q/22-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan hisoblansin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinosi M.Tulegenov zimmasiga yuklansin.

Konimex tumani hokimi



RO'ZIYEV
RUSLAN.NASIROVICH

Konimex tuman hokimining
2024-yil 14-maydagi
79-5-70-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Konimex tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli umumiy o'rta ta'lim maktablarining mikrohududlari

T/r	Maktablar	MFY,OFY	Maktablarga berkitilgan mikrohududlar	Biriktirilgan hodim
1	1-maktab	"Birlik" MFY	Janabayev, Gagarin, Abay, Bekmurat jirau, Jambul ko'chalari	J.Tairbekov
		"Guliston" MFY	Ayteke bi ko'chasi	
2	2-maktab	"Sho'rtepa" MFY	Toqmang'i qishlog'i	G.Serjanova
		"Birlik" MFY	Nurafshon, Cho'lpion, Ibn Sino ko'chalari	
		"Do'stlik" MFY	Axunbabayev ko'chasi	
3	3-maktab	Sho'rkul MFY	Nurli jol qishlog'i	G.Qidirbaeva
4	4-maktab	"Sarjal" OFY	Qizilquduq ovuli	N.Almaxanov
5	5-maktab	"Yangiqazg'on" OFY	Yangiqazg'on ovuli	I.Narizova
6	6-maktab	"Qaraqata" OFY	Balaqaraq, Nurbulaq ovullari	A.Duysenbaev
7	7-maktab	"Navro'z" MFY	Berdax, Yoshlik, Ajiniyaz ko'chalari	SH.Namozova
		"Sho'rtepa" MFY	Sho'rtepa, Shodibek qishloqlari	
8	8-maktab	"Uchtepa" OFY	Uchtepa ovuli	Q.Bisenov
9	9-maktab	"Guliston" MFY	Yangi qishloq, Chorvador, Guliston, Yangi avlod, Istiqbol, O'zbekiston ko'chalari hamda Qurama, Qumroboq qishloqlari	K.Narmuratova
10	10-maktab	Sho'rko'l MFY	Haqiqat, Qiyyiq to'p, Yangiobod qishloqlari	E.Qidirbaev
11	11-maktab	"Baymurat" OFY	Baymurat, Ko'ne Baymurat ovullari	SH.Kazakbaev
12	12-maktab	"Yuksalish" MFY	Keneges, Do'stlik, Chordara, Oqtepa, Jalauli qishloqlari	E.Isaev
13	13-maktab	"Sarjal" OFY	O'razjan ovuli	Q.Dosanov
14	14-maktab	"Sarjal" OFY	Teriquduq ovuli	S.Kanatova
15	15-maktab	"Yangiqazg'on" OFY	Fidokor ovuli	N.Mirzaev
16	16-maktab	"Zafarobod" MFY,	"Shodlik" "Konchilar"	N.Raxamnova
		"Ko'kcha" MFY	1-2-3-4-5-6-7-8-9-10-11-12-13-14-15-16-17-18-19-20-21-22-23-27-85-88-134-135-136-137-ko'p qavatli uylar,yotoqxona,dala xovli,xovli	
17	17-maktab	"Uchtepa" OFY	Besquduq ovuli	Q.Xojaxmetov
18	18-maktab	"Qaraqata" O'FI	Madaniyat, Aqsay ovullari	N.Sandibaeva
19	19-maktab	"To'qqiz tepa" MFY	Momiqchi qishlog'i	F.Tulkibaeva
20	20-maktab	"Qaraqata" OFY	Qaraqata ovuli, Shengeldi ovuli	T.Qazanbaev
21	21-maktab	"Uchtepa" OFY	Kendala, Taldiqquduq ovullari	U.Buxanov
22	22-maktab	"Do'stlik MFY	Bobur, Sh.Rashidov, Xalqlar Do'stligi, Mustaqillik, Tinchilik, Navoiy, Istiqlol ko'chalari	G.SHamshieva
23	23-maktab	"Yangiqazg'on" OFY	Paxtakor ovuli	Q.Bisenov
24	24-maktab	"Sarjal" OFY	Qizilquduq ovuli	B.SHadmanova
25	25-maktab	"Baymurat" OFY	Xalmuratqazg'on ovuli	A.Abdixaymov
26	26-maktab	Sho'rko'l MFY	Kuneobod-2 qishlog'i	A.Iztileuova
		"To'qkiz tepa" MFY	Xo'jato'p, Kuneobod-1 qishloqlari	
27	27-maktab	"Yangiqazg'on" OFY	Do'ngalak ovuli	J.Abdisadikov
28	28-maktab	"Zafarobod" MFY, "Ko'kcha" MFY	GRP-5, GRE-18, Shodlik ko'chasidagi ko'p qavatli uylar 1,9,17,88,134,135, GRP-5, GRE-18 dala xovlilar	Sh.Pralieva
29	30-maktab	"Sho'rko'l" MFY	Uyg'ur to'p, Kompleks qishloqlari	T.Namuratov
30	31-maktab	"Navro'z" MFY	Bazar jirau, Oqmang'iit, Karvon yo'li ko'chalari	A.Sibanova
31	32-maktab	"Baymurat" OFY	Yangiturmush ovuli	E.Tumenbaev
32	33-maktab	"Baymurat" OFY	Qo'shquduq ovuli	A.Sudallaev
33	34-maktab	"Baymurat" OFY	Yeltay ovuli	J.Berdiev
34	35-maktab	"Qaraqata" OFY	Porloq, Ashshi ovuli	U.Sulimenova
35	36-maktab	"Yangiqazg'on" OFY	Yangiqazg'on ovuli	T.DJuraev
36	37-maktab	"Uchtepa" OFY	Yesquduq ovuli, Atquduq ovuli	K.Tanrikulov